



PANJOB QISHLOG'I AHOLISINING OILAVIY SHAJARALARI VA ETNIK AN'ANALARI

Shahboz Chorshanbiev

Termiz davlat universiteti

doktoranti. O'zbekiston.

e-mail: shahbozchorshanbiev3@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20685666>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 5-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 13-iyun 2026 yil

KEY WORDS

Panjob, oila-qarindosh guruhlar, avlod, oila-shajaralari, genealogiya, o'zliklar, kasbiy o'zlik, etnik o'zlik, qishloq-mavzolari, panjobilar,

ABSTRACT

Maqolada muallif tarixiy-etnografik manbalar, etnografik materiallar asosida Hisor tog' tizmalari bag'rida joylashgan Panjob qishlog'i aholisining genealogik an'analari, urf-odatlar, marosimlari, etnik va hududiy o'zliklari masalalarini mavjud ilmiy adabiyotlar, tadqiqot natijalari va dala materiallari asosida tahlil etgan.

Panjob qadimiy Boysun–Hisor tog' yonbag'irlarida joylashgan qishloqlar jumlasiga kiradi. Panjob dengiz sathidan 1500 metr balandlikda, xushmanzarali tog' bag'rida joylashgan. Qishloq aholisi asosan tojik tillida so'zlashadi. Ushbu qadimiy qishloqning tranzit savdo yo'li yoqasida joylashganligi aholisini tig'iz etnik-madaniy muloqotga tortgan. Ma'lumki, bu savdo yo'li 2,5–3 ming yillik tarixga ega bo'lib, Hindiston, Afg'oniston, Termiz, Sherobod, Kallamozor, Panjob, Sayrob, Darband orqali Buxoro-yu, Samarqand tomon o'tganligi ma'lum.

Mavjud tarixiy ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, qadimda panjobliklar asosan bog'dorchilik va dehqonchilik bilan shug'ullanib kelganlar. Panjobga kirish darasi (Dahni Panjob)da devor qurilgan, tashqi dushmanidan saqlanish uchun soqchi merganlar qo'yilgan. O'sha davrda ichkari va tashqi Panjobda aholi yashagan. Tashqi Panjobning Guzari Odil degan joyida Kushonlar davrida qo'rg'on qurilgan va bu joy Qo'rg'oni Odil (Odil qo'rg'oni) deb atalgan.

Arxeolog va tarixchi olimlardan B. X. Karmisheva (Moskva), E. V. Rtveladze (Toshkent), S. I. Ivanov (Sankt-Peterburg), T. Annazev (Termiz), P. Shoyimov (Muzrabot) Kushonlar imperiyasi davrida qurilgan qadimiy davlat chegarasi devorlarini 3–4 yil davomida tekshirib ko'rganlar. Bunday izlanish materiallari O'zbekiston kinematograflari tomonidan ilmiy-ommabop kinofilm sifatida lentaga tushirilgan. Ana shu 1985–1988-yillardagi izlanishlar bo'yicha ichki Panjobga kirish devori bo'lgan ko'prik – Gazak ham suratga olingan.

Panjob qadimiy forsiy-pahlaviy so'z bo'lib, "panj ob", ya'ni "besh suv" ma'nosini anglatadi. "Ob" so'zining kelib chiqishi esa, besh ming yilga mansubdir. Fors-tojik tilida "ob" so'zi uch ma'noni anglatishini hisobga olmoq kerak, ya'ni "ob" – oqar daryo, buloq hamda suyuqlik ma'nolarini o'z ichiga oladi. Panjob atamasidagi "ob" so'zi esa buloq ma'nosini ifoda etgan, deb tushunmoq kerak. Bunday suvlar (ya'ni buloq suvlari) besh daradan oqib keladi. Bular Hazorxon, Bineres, Kachdara, Kamarak, Tovasang daralaridir.

Panjob darasining ichkarisidan, ya'ni Peshkai Malg'uzor (Malg'uzor to'ri)dan oppoq sho'r suv otilib chiqadi. u sho'r suv aslida Xomkondagi katta Kengbeshbuloq deb ataluvchi ko'ldan

keladi. Oqim tuz koni orqali o'tgani uchun toza suv sho'rlanadi. Umuman, Panjobdagi buloqlar, hammasi bir soy tomonga oqib, oxiri Sho'rsuv daryosiga qo'shiladi.

Tashqi Panjobda quyidagi asosiy joylar: *Kappakuydi, Sho'rbuloq, Hovli eshon, Quruqi kalon, Arratosh, Guzari Odil, Gazak, Beshbuloq*. Bu sakkizta joy nomining 3 tasi forscha, 5 tasi esa o'zbekcha toponimdir. B. X. Karmishevaning yozishicha, Poshxurd vohasidan shimoliy yo'nalishda Dahparakentga kiruvchi Panjob qishlog'i joylashgan. Olimaning qayd qilishicha, qishloq aholisi asosan chig'atoy-tojiklar bo'lib, yuqori Laylagon qishlog'ida yashovchi o'zbeklar bilan quda-andachilik qilib kelganlar. Laylagonliklarning Panjob yaqinida sug'oriladigan yerlari bo'lib, ular yozda ana shu o'z bog'i va dala-hovlisiga ko'chib kelib yashaganlar. B. X. Karmishevaning ta'kidlashicha, Sherobod daryo havzasida uchta katta tojik qishloqlari (Panjob, Sayrob, Darband) mavjud bo'lgan. Bu nomlar -йил. bo'ylab o'zlari mansub qishloqning kvartal (daha)larida joylashgan¹. Bunday qishloqlar Darbandda 11 ta, Sayrobda 6 ta, Panjobda 2 ta. Panjobdagi bu ikki qishloq -йил. Ichki va Tashqi Panjob deb ataladi va aholisi 5 ta o'zaro genealogik jihatdan bog'liq bo'lgan urug' (daha) larga bo'lingan.

Shu bilan birga, Panjobdagi har bir urug' 3 tadan 5 tagacha avlodlarga, avlodlar esa shoxlarga bo'linadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tmoq kerakki, panjobliklarning ushbu qayd qilingan urug'laridagi avlodlari bo'yicha qisman qabristonlar ham alohida-alohida joylarda barpo etilgan. Bunday udumlar panjobliklar uchun ham xosdir.

Oshiqi – bu urug'ning ajdodlari qadimdan Panjobning o'zida yashagan. Ularga birinchi beshik shu makondagi buloqlarning birida Xudo tomonidan tuhfa etilgan, degan rivoyat mavjud. Tarixiy manbalarda esa boshqa biron ma'lumot yo'q. Shunga qaramasdan, bu urug'ning kelib chiqishini va bosh bobokaloni kimligini aniqlash uchun o'tkazilgan turli og'zaki suhbat materiallaridan ham foydalanib izohlashga harakat qilganmiz.

Oshiqi urug'ining kelib chiqishi rivoyatlarga ko'ra Mulla Malikning o'z bolalari bilan arablar istilosi va ularning zulmidan qochib, Panjobga kelib joylashishi bilan bog'liqdir. Shu boisdan *Oshiqi* urug'iga mansub kishilarni umumiy holda dastlab "Moliki" deb ham yuritilgan. Bu ham o'sha kishining nomi bilan bog'lab qabul qilingan atamadir. Mulla Malik juda baquvvat, chaqqon va pokiza inson bo'lgan. U kishi dastlab Ichki Panjobning Noviob qismida o'tirib, u yerning obodonchiligiga katta hissa qo'shadi².

Keyinchalik u yerdan Ichki Panjobning *Xoki safed* (oq tuproqli) degan joyiga ko'chib o'tadi va hayot kechiradi. Oradan bir necha yil o'tgandan keyin Ichki Panjobga turli zulmlar tufayli iztirob chekkan va qochib kelgan arabistonlik Sulaymon degan kishi ham keladi va yashab qoladi. Vaqtlar o'tishi bilan Sulaymon va uning bola-chaqalari ham o'sib-ulg'ayadi, undan ham nasl ko'payib boradi. Shu sababli oshiqilar tarkibida Sulaymon shoxi va avlodiga mansub urug' ahli "sulaymoni" deb ataladi³. Vaqtlar o'tishi bilan *molikilar* va *sulaymonilar* ko'payib, bu ikkisi *Oshiqi* urug'ini tashkil qilishga asos bo'lgan.

Bu urug'ning "*Oshiqi*" deb atalishi Oshiq polvon nomi bilan bog'liq bo'ladi. O'sha yillari kunlarning birida Buxoro hokimi o'tkazgan kurashda hokimning polvonini yengib qo'yadi. Rivotga ko'ra Oshiq polvonning yaqin qarindoshlari yig'ilib, kunduzgi voqeani muhokama qiladilar. Yig'ilgan keksalar Oshiq uchun xavf borligini, dushmanlar buni kechirmasligini aytib, unga va yaqinlariga boshqa joyga yashirincha ko'chib ketishni maslahat beradilar.

Shexoni (Sherxonlar) shoxi (urug'i) haqidagi rivoyat Darband qishlog'ida kambag'al bir oila bilan bog'lanadi. Oilada to'rt farzand bo'lib, bosh farzandi qiz, qolgan uch nafari o'g'il bolalar bo'lgan. Kambag'allik, yo'qchilik sabab o'tayotgan karvonga qo'shilib Qobul (Afg'oniston) shahriga borgan. U yerda zamindor bir boyning eshigida xizmatkor bo'lib, tirikchilik qila boshlaydilar. Oradan oy-kunlar o'tadi. Aka-ukalar o'sib-ulg'ayadilar. Opalari esa o'sha yerda turmushga chiqib, farzandli bo'ladi.

¹ Кармышева Б.Х. Очерки этнических истории южных раёнов Таджикистана и Узбекистана. –М.: 1976.

² Панжоб ва панжобликлар тарихи. Термиз 1997-йил.

³ Dala materiallari. Panjob qishlog'i. 2024-yil. *Primova kifoyat*. 69 yosh.

Ammo uch aka-ukalardan kenjasi to'yda kurash tushib, mashhur afg'on polvonini yengadi va yerli aholi bilan ziddiyat kelib chiqadi. Shundan so'ng aka-ukalar Turkmanistonning Kelif degan joyida joylashadilar. Bir necha yil yashab, katta akasi bir boyning qo'ylarini boqib, cho'pon bo'lib qoladi. Ikki og'a-ini esa Qo'ytan tog'i orqali o'tib, Panjobga kelib to'xtashadi. Ular Panjobda bir necha yil yashaydilar. Akasining ismi bosh bobosining nomi bilan Shexon deb atalgan. U uy-joyli, bola-chaqali bo'lib, Panjobda qolib, nasli ko'payib boradi. Oradan ko'p yillar o'tib, Shexondan kelib chiqqan qarindoshlar o'z bosh bobolari nomini abadiylashtirishni maqsad qiladilar. Avval "Shexon" shox nomi bo'lgan bo'lsa, keyinchalik avlod, yana vaqt o'tishi bilan urug' nomiga aylangan. Aka-ukalarning kenjasining ismi Sharifi Sherxon bo'lgan. U: "Men bosh bobomning joyiga (vataniga) boraman", deb ahd qiladi⁴. Tog'lar orqali Sayrob tepasidan o'tib, Panjobdan Darbandga yetib boradi. Sherxon Darbanddagi Oqmachit yaqinida, Toshloqsoy bo'yidan ozgina yer olib obod qiladi. Darbandda barcha yerlar egali bo'lgani sababli, Sarimask, Chorbog' darasidan yangi yer oladi. Lekin bu yerlar sug'orilmaydigan lalmi yerlar bo'lgan. Shu sababli Sherxon naslini "yer topolmaganlar" deb ham atashgan. Shu bois ular yangi joy izlay boshlaydilar. Nihoyat, buloqli bo'lgan Yolg'izbuloqqa borib, yangi yer ochib, uni o'zlashtirib, shu yerda istiqomat qiladilar⁵. Aka-ukalar nomi bilan atalgan Shexoni urug'lari Panjob va Darbandda ana shu tarzda paydo bo'lgan.

Sheyxonilar avlodi bir otaning farzandi, uchta aka-uka bo'lib, ular Afg'onistonda qolgan hozirgi darbandilarning ajdodlari bo'lgan. Ularning singlisi Afg'onistonga kelin bo'lib tushadi. Aka-ukalar singlisini ko'rish uchun Afg'onistonga boradilar u yerda bir badavlat kishi to'y qilayotgan bo'ladi. To'yda katta kurash ham bo'ladi. Bu aka-ukalar ham kurashga boradilar, keyin ular afg'on polvonlari bilan kurashga tushadilar, natijada afg'on polvonlarini yiqitadilar. ularning singlisi bu yerdan ketinglar endi afg'onlar sizlarni tinch qo'ymaydi deydi. Aka-ukalar o'zaro maslahatlashib uchovimiz ham Darbandga bormaymiz uchta joyga boramiz, agar afg'onlar bizlarni topib olsa, bitta ham qoldirmasdan o'ldiradilar deb, afg'onostondan chiqib, birovi Turkmanistonning Kelif degan joyiga boradi, birovi Panjobga boradi, birovi esa, Darbandga qaytib keladi. Shuning uchun sheyxonilar yashagan joyni Darbandda yashaydigan aholi Soyishexon deb ataydilar⁶.

Ka'noni urug'ining kelib chiqishi haqida panjoblik bobolar hamda panjobilarning aytishi bo'yicha, Abdualining ikkita o'g'li bo'lgan ekan ularning ismi, Ka'non va Sa'non. bundan 1200–1400 yil avval aka-uka Ka'non bilan Sa'non yaqin qarindoshlari bilan birga 3–4 kichik oila bo'lib Tojikistonning Panj daryosi sohillarida yashagan. Kunlardan bir kuni beklar zulmidan qutulish maqsadida hozirgi Sayrob hududidagi buloq atrofiga ko'chib kelib yashay boshlaydilar. Ka'non va Sa'nonlar soqol-mo'ylov qo'yib, (chet eldan keluvchilar tanimasligi uchun) dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib, tirikchilik qilganlar. Ular bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qilib, yangi yerlarni o'zlashtirib, ekinzorlar yaratganlar, bozorlar bunyod etganlar, mevali va manzarali daraxtlar ekib, ko'kalamzorlashtirganlar. Buloq atrofi kelajakda dam olish maskani bo'lishini tasavvur etganlar. Ka'non va Sa'nonlar atrof obodonchiligiga alohida e'tibor berganlar. Tarixdan ma'lumki, Buyuk Ipak yo'li Sherobod, Sayrob va Darband orqali Qashqadaryoga o'tgan. Karvonlarning ba'zan Sayrob orqali o'tishi Ka'nonlar uchun tasodifiy xavf tug'dirishi mumkin edi. Darhaqiqat, kunlarning birida Sayrob orqali karvon o'tadi. Ka'nonlar karvonda o'z qishloqdoshlarini ko'rib qolishadi. Shu bois ular xavfning oldini olish uchun joylarini o'zgartirish kerakligini anglaydilar va Ichki Panjobning Xoki safed qismiga ko'chib o'tadilar. Bu joy hozir ham Sayrobilar qishlog'i deb yuritiladi. Bu voqea quyidagicha bo'lgan: bu yerga ham Shahrisabz tomondan 3–4 oila beklar zulmidan qochib kelib joylashgan. Savdogarlar Xatakda Tangi orqali o'tib savdo qilishgan. Keyinchalik yo'lni qisqartirish uchun Panjob ustidagi yo'llardan foydalanishgan. Shahrisabzdan qochib

⁴ Dala materiallari. Panjob qishlog'i 2024-yil. Bo'ronov To'rali 67 yosh.

⁵ Dala tadqiqotlari. Abdusalomov Shoberdi 78 yosh. Termiz sh. 2025-yil.

⁶ Dala materiallari. Norqul bobo 73 yosh Darband qishlog'i 2025-yil.

kelganlar ichki panjobga borib joylashadilar ichki Panjobda yashayotganlar orasida o'z qishloqdoshlarini ko'rib qolishadi va joylarini o'zgartirish haqida o'ylay boshlaydilar. Ka'non va Sa'non ov bahonasida O'luja darasi orqali o'tib, ichki Panjobga kiradilar. U yerda yashayotganlar bilan uchrashib, mehmon bo'ladilar. Kechasi ular uzoq suhbatlashib, xavfsizlik sababli joyni o'zgartirish kerakligini tushunadilar. Oradan bir hafta o'tgach, mehmonlar yana Ka'non va Sa'nonlar huzuriga kelishadi. Shundan so'ng ikki tomon joy almashishga qaror qiladi. Shu vaqtdan boshlab Ka'non va Sa'non avlodlari Panjobda yashab kelmoqdalar.

Keyinchalik Ka'noni urug'iga Solihilar ham qo'shilgan. Buning sababi shundaki, Sa'nonning qiz farzandi bo'lmagan faqat o'g'li bo'lgan Ka'nonning esa, faqat qizlari bo'lgan. Solih Sa'nonning o'g'li bo'lgan Sa'non bilan Ka'non rivoyatga ko'ra Sa'nonning uyida bir maraka bo'ladi marakada oilaviy kelishmovchilik yuzaga keladi, "Solih otasiga har doim marakada amakimni ranjitasiz" deydi otasi g'zablanib, sen ham amakingni yonini olayapsan sen hale U tomondamisan? Bugundan boshlab sen ham amaking tomonga o'taver deb qattiq g'zablanadi. Solihning ham uch nafar O'rozali Olim Shams degan o'g'llari bo'lgan. Sa'nonning yana bir o'g'li Ponda Solihning avlodiga qo'shiladi. Solihilar urug'i to'rta avlodga bo'linadi; avlodi O'rozali, avlodi Olim, avlodi Shams avlodi Ponda Olimdan esa, avlodi Berdiali degan avlod tarqaladi. Shuningdek, Solihila rurug'I shakllanaib, Ka'noni urug'iga qo'shib ketadi. Sa'non bilan Ka'non quad anda bo'lmagan. Ka'non urug'li beshta avlodga bo'linadi; avlodi Mahmatmo'min Avlodi Hoji avlodi Govkush avlodi Qalandar avlodi Zardboy. Xulosa qilib aytganda, Ka'non va Sa'non hamda Shahrisabzliklar turli sabablarga ko'ra Panjobga kelib yashab qolganlar.

Sa'noni. Sa'nonlar Panjobning qadimiy urug'i hisoblanadi. Haqiqatdan ham bu rivoyat to'g'ri va o'rinlidir. Sababi shundaki, Sa'noni urug'i bilan Ka'noni urug'i o'zaro bog'liq holda kelib chiqqan. Buni yuqorida qayd etganimiz rivoyat ham tasdiqlaydi. Shunday qilib, Ka'noni va Sa'noni urug'lari aka-ukalarning nomidan kelib chiqqan deb xulosa qilish kerak. Sa'noni urug'I ham beshta avlodga bo'linadi; avlodi Mahmamin, avlodi Askar, avlodi Kattaali, avlodi Oqnazar va avlodi Qozi.

Shahistonagi urug'ining kelib chiqishi. Panjoblik oqsoqollar bilan o'tkazilgan og'zaki suhbat natijalariga ko'ra quyidagilarni aytish mumkin: 895-995-yillarda Samarqandning Kattaqo'rg'on hududidan to'rt kishi (ichida aka-singil ham bo'lgan) turli sabablarga ko'ra oq qashqa eshaklarini minib, o'z qishloqlarini tark etib chiqib ketishgan. Ular Qashqadaryo hududini yo'l-yo'lakay kesib o'tib, qulay joy topa olmaganlar. Yo'llarini davom ettirib, Dehqonobod hududi orqali tog'dagi eshak yuradigan yo'l bilan Panjob tog'iga yetib kelganlar. Tog'dan ichki Panjobga qaraganda bu joy juda qulay manzil bo'lib ko'ringan. Natijada ular ichki Panjobga kirishda turli qiyinchiliklarga duch kelganlar. Tog'dan pastga tushish jarayonida quyidagi voqea yuz beradi. Ular orasida yoshi kattaroq, mullo sifat bir kishi bo'lgan. Birinchi bo'lib eng yosh - uchinchi yigit qiyin yo'l orqali ichki Panjobga tushadi. Tepada esa aka-singil va katta yoshli odam qoladi. Keyin pastga tushgan yigit yoshi kattaga yordam berib uni tushiradi. So'ng u singlisini tushirishga ham yordam berish talabini eshitadi. Yigit esa shunday javob beradi: - Men mahram bo'lmaganlarga qo'limni tekkizmayman. Agar singlingizni menga turmushga berishga rozi bo'lsangiz, uni ushlab tushiraman, aks holda yordam berolmayman⁷.

Shunda qizning akasi o'ylab qoladi va singlisi bilan maslahatlashib, rozilik bildiradi. Pastdagi yigit bu rozilikni eshitgach, qizni ehtiyotkorlik bilan pastga tushiradi. Shu paytda u uch marta "dodi?" ("berdingmi?") deb so'raydi. Aka esa yuqoridan "dodi!" ("berdim!") deb javob beradi. Shu sababli bu joy keyinchalik "Ro'hi dodii" deb atalgan. Keyin yigit akaga ham yordam berib pastga tushiradi. Ular ichki Panjobning Pirigi qismiga kelib joylashadilar. Bu joy eng keksa va farishta sifat odam nomi bilan atalgan. Ular birga yashab, mehnat qilib, mahalliy aholi bilan tanishib boradilar. Oradan vaqt o'tib, qiz akasining roziligi bilan turmushga chiqadi. Nikohni Pirboy o'qiydi. Shunday qilib yangi oila tashkil topadi. Keyinchalik Pir va qizning akasi ham

⁷ Dala tadqiqoti. Termiz. 2025-yil. Qalandarov Ro'zimurod. 83 yosh.

uylanadilar. Shahistonagi urug'i to'rta avlodga bo'linadi. *Avlodi Gadoyali, avlodi G'ussa, avlodi Xo'jayor, avlodi Pir*. Aholining aytishi bo'yicha avlodi Gadoyali Tojikistonning Ko'lob degan joydan kelgan, degan fikrlar ham mavjud.

Xulosa qilib aytganda, Hisor tog' tizmalari bag'rida joylashgan Panjob qishlog'i nafaqat tabiiy-geografik jihatdan, balki tarixiy-etnografik va ijtimoiy-madaniy jihatdan ham o'ziga xos hudud hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qishloqda mavjud bo'lgan *Oshiqi, Shexoni, Ka'noni, Sa'noni* va *Shahistonagi* kabi urug'lar o'ziga xos kelib chiqish tarixiga ega bo'lib, ular asosan og'zaki rivoyatlar, tarixiy xotira va ijtimoiy tajriba orqali avloddan-avlodga o'tib kelgan. Ushbu urug'lar ichida avlod va shoxlarga bo'linish tizimi aniq shakllangan bo'lib, bu jarayon panjobliklarning ijtimoiy tuzilmasi va o'zlikni anglashida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, genealogik an'analar nafaqat qarindoshlik aloqalarini tartibga soluvchi omil, balki etnik va hududiy identifikatsiyaning muhim vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Qabristonlarning avlodlar bo'yicha alohida joylashuvi, urug' nomlarining saqlanishi va ularning tarixiy asoslari panjobliklarning o'z ildizlariga bo'lgan hurmati va sodiqligini aks ettiradi. Umuman olganda, Panjob qishlog'i aholisi misolida genealogik an'analar, etnik o'zlik va tarixiy xotira o'zaro uzviy bog'liq holda shakllangan murakkab ijtimoiy-madaniy tizimni tashkil etadi. Ushbu tizimni o'rganish nafaqat mahalliy darajada, balki Markaziy Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixini chuqurroq anglashda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кармышева Б.Х. К истории формирования населения южных районов Узбекистана и Таджикистан. /СЭ – (Советская этнография). – М. 1964.
2. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва: Наука, 1976.
3. Кисляков Н. А. Сайробские таджики, /СЭ, 1965, № 2.
4. Турсунов С., Умаров И., Пардаев Т., Холманова Ф., Турсунов А. ва бошқ. Ўзбекистонда топонимик номлар ва уларнинг тарихи. Т., Сурхон-Нашр. 2017.
5. Панжоб ва панжобликлар тарихи Термиз, 1997.